

**KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI****Sultanov Asadbek***“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti GM fakulteti**MMTX yo'nalishi 1-kurs talabasi*muha.erm2007@gmail.com**Sultanov Oybek***“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti YRK fakulteti**Yer tuzish va yer kadastrisi yo'nalishi 2-kurs talabasi*soybek310@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining 1992-yilgi Konstitutsiyasi va 2023-yilda qabul qilingan yangi tahriri o'rtasidagi asosiy farqlar o'rganiladi. Tadqiqotda “ijtimoiy davlat” tamoyillarining joriy etilishi, inson huquq va erkinliklarining kengaytirilishi, davlat boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, yangi Konstitutsiyada mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya va nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlariga oid yangi normalar kiritilgani yoritildi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, ijtimoiy davlat, huquq, ta'lim, ekologiya, sog'liqni saqlash.

KIRISH

“Konstitutsiya” atamasi xalqaro atamalardan hisoblanib, barcha tillarda ishlatiladi. Uning lug'aviy ma'nosi lotincha “constitution”, ya'ni o'rnatishdir. Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega davlatning Asosiy qonuni, huquqiy hujjatdir.[1]

Konstitutsiya - bu prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy normalarni o'zida mujassam etgan va davlat hokimiyatini amalga oshirish me'yorini belgilovchi davlatning asosiy qonuni bo'lib, unda davlatning qurilishi, huquqiy tizimi hamda eng asosiysi, davlat bilan aholi o'rtasidagi munosabatlar aks etgan yuridik hujjatdir. [2]

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega bo'lgan, mamlakat halqining erk-irodasini o'zida ifodalagan, demokratik tamoyillarni o'ziga sindirgan, inson huquq va erkinliklarini ta'minlanishini kafolatlagan, qolaversa davlat organlari faoliyatining asosiy yo'nalish va faoliyatini belgilab bergan Asosiy qonundir. [3]

Agar qaysidir davlatda qonun va qoidalar bo'masa, bu davlat erkinligini, farovonligini, fuqarolari xavfsizlikni va davlat o'z suverenitet asosini yo'qotadi. Sohibquron Amir Temur bobomiz ta'kidlaganidek “Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo'qoladi. Shu nuqtaiy nazardan, konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash biz bunyod etayotgan demokratik-huquqiy davlatning bosh mezoni hisoblanadi.

TADQIQOT USLUBI

O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilinishi va uning ijtimoiy-siyosiy muammolarga yechim bo'lganligi, fuqarolarning huquq va erkinlik qanday ta'sir ko'rsatganligi o'rganiladi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi bilan solishtiriladi va qanday muhim o'zgarishlar bo'lganligi tahlil qilinadi.

NATIJA

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi huquqiy, ijtimoiy va siyosiy voqea ekanligi aks ettiriladi. 1992-yilgi birinchi Konstitutsiya va so'nggi islohotlar jarayonida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlari normativ-huquqiy shakllanishga bevosita ta'sir qilgan. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinishi fuqarolariga katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Xususan, so'z erkinligi, e'tiqod erkinligi, bepul ta'lim olish, fuqarolar o'z iqtisodiy faoliyatini erkin yuritish va mulkga egalik qilishi, saylovlarda qatnashish kabilar.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yili 8-dekabrda qabul qilingan birinchi konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 bob, 128 ta moddadan iborat bo'lgan. Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasi orqali uch oy ichida yaratilgan. Umumxalq muhokamasi jarayonida kelib tushgan olti mingta taklif asosida loyihaga saksondan ortiq tuzatishlar kiritildigan. Umumxalq muhokamasi davomida ko'plab takliflar inobatga olingan. Bu O'zbekiston demokratik davlat ekanligiga yaqqol misol.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqida: "Bosh maqsadimiz - har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir", deb ta'kidlagan edi.

2023-yilning 30-aprel kuni "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referedumi o'tkazildi va yangi tahrirdagi Konstitutsiya bevosita fuqarolarimiz tomonidan qabul qilindi. Referendum chaqirilishidan oldin konstitutsiya loyihasi bo'yicha 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya tariximizda bevosita xalq tomonidan qabul qilini b, to'g'ridan to'g'ri amalga kiritilgan birinchi hujjat bo'ldi. Yangilangan Konstitutsiyaning eng muhim jihatlari, shaxsiy huquq va erkinliklar, iqtisodiy va iltimoiy huquqlar borasidagi normalar qariyb 3,5 baravarga ko'paydi. Konstitutsiyada moddalar 128 tadan 155 taga oshdi. Asosiy qonun matni qariyb 65 foizga yangilandi. [4]

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining dastlabki 1-moddasida O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat ekani qat'i belgilab qo'yildi. Ushbu moddadagi Haquqiy davlat huquq ustuvorligi ta'minlangan, inson va fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlangan, qonunlar oldida

barcha teng va hisobdor bo'lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlat ekanligi nazarda tutilgan.

Ijtimoiy davlat har bir inson uchun faravon turmush darajasi, xususan, sifatli ta'lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, uy-joyli bo'lish sharoiti mavjud bo'lgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli davlatdir.

Dunyoviy davlat diniy tashkilot va birlashmalar davlatdan hamda davlat hokimiyati dindand ajralgan, davlat boshqaruvi diniy qoidalar bilan emas, balki Konstitutsiya va qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan davlat hisoblanadi.

Yana bir eng muhim o'zgarishlar qatorida ta'lim sohasiga oid normalar yanada ko'paydi. Masalan, davlatning o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'axo'rlik qilish mushtakamlandi. (52-modda) [5]

Eski Konstitutsiyaning 19-moddasida "Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart", deb yozilgan bo'lsa, yangi tahrirlangan Konstitutsiyada "Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart", deb yozilgan. Bu bilan faqatgina qonunda bo'lsa imtiyozlar berilishi emas, balki adolat ham bo'lishi kerakligi ko'rsatilgan.

Xalq uchun eng kerakli va juda muhim bo'lgan o'zgartirish, "Yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonlar dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin. (68-modda) [5]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi PF-67-sonli "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasini Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini so'zsiz va to'liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni Yangi O'zbekiston ulug'vor g'oyasiga hamohang tarzda ro'yobga chiqarish, fuqarolar o'z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta'minlash mustahkamlanadi. [6]

XULOSA

Yangi Konstitutsiya global o'zgarishlar va fuqarolarning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib yangilandi. Yangi Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi, davlat organlarining shaffofligi va mas'ulyati aniq belgilab berildi.

Eski Konstitutsiyaga nisbatan yangi tahrirda inson qadri, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, davlat boshqaruvining samradorligi va sud-huquq tizimining mustaqilligi yanada kuchaytirildi. Xususan, fuqarolarning sifatli hayot kechirish imkoniyatlari huquqiy jihatdan kengaytirildi, davlatning xalq oldidagi



mas'ulyati aniq va majburiy normalar orqali belgilandi. Bu o'zgarishlar Konstitutsiyani nafaqat davlatning asosiy huquqiy hujjati, balki amaliy hayotda real ishlaydigan "xalq Konstitutsiyasi" ga aylantirdi.

Ushbu yangi tahrirdagi Konstitutsiyani xalqqa to'liqroq tushuntirish kerak. Yani, tashkilotlar, ta'lim muassasalari, ishxonalar va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlarda tadbirlar tashkil etish kerak. Chunki, xalq o'z huquq va majburiyatlarini bilsa adolatsizlikga uchramaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'laganov A., Cho'liyev A. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish", 2005
2. "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonini" Akayeva N.M.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023 y.
5. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonini. O'quv-uslubiy majmua / Mualliflar jamoasi: Q.Q.Quronboyev, X.T.Azizov, M.B.Bekmurodov va boshq. – Toshkent, 2020 y. – 4-b.
6. <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>